

## **TIBBIY BRIGADA HAMSHIRALARI ISH FAOLIYATIDA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

*Fayzullayeva S.A.*

*Toshkent Tibbiyat Akademiyasi*

*Jamoat salomatligi maktabi Toshkent, O'zbekiston*

Zamonaviy tibbiyotda yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, bemorlarning ehtiyojlarini qondirish va ularning sog'lig'ini tiklashda muhim omil sanaladi. Shu sababli tibbiy brigada hamshiralaring amaldagi ish faoliyatini o'rganish, ishdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash va ish samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Tibbiy brigada hamshiralari faoliyatini kompleks o'rganish, uning sifati va samaradorligi oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

**Materiallar va metodlar:** Tadqiqot Guliston shahar 2, 4-sonli oilaviy poliklinikalari, Guliston shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi tibbiy brigada hamshiralari va ularga biriktirilgan aholi o'rtaida anketa so'rovnomalari orqali o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari:** Tibbiy brigada hamshiralaring ta'lim va tajriba darajasini o'rganilganda hamshiralarning 75,4% muntazam malaka oshirsada, 24,6% faqat kamdan-kam hollarda mustaqil kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanadi. Aksariyat hamshiralarning 1-5 yillik (32,7%) va 10-15 yillik (27,3%) tajribaga ega bo'lishi ularning amaliy tajriba orttirishga imkoniyat topganligini ko'rsatadi. Hamshiralarning 20% oliy malaka toifasiga, 5% birinchi, 24% esa ikkinchi toifaga ega. Shu bilan birga, malaka oshirish sohasida hamshiralarning 46% oxirgi bir yil ichida, 29% esa uch yil avval malaka oshirgan. Bu esa, ularning malaka oshirish jarayonining tizimli ravishda davom etayotganligini ko'rsatdi. Hamshiralar ish faoliyatining samaradorligi o'rganilganda, ularning 43,6% hisobot hujjatlarini yuritishdan qoniqmaydi, 34,5% esa ish vaqt va sharoitlarining

noto‘g‘ri tashkil etilganligini ta’kidlagan. Bu esa tibbiy brigadalar zamonaviy texnologiyalarni amaliyatga joriy etishda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Psixologik va deontologik omillar so‘rovnama natijalariga ko‘ra, hamshiralarning 90% tibbiy etika qoidalariga rioya qiladi. Biroq, 14% hollarda bemorlar bilan nizolar uchraydi, bu esa, muomala va deontologik nuqtai nazardan ba’zi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Aholi orasida tibbiy brigada hamshiralari faoliyatidan qoniqish darajadasi ko‘rsatkichi yaxshi bo‘lib, 84,3% aholining qoniqishini bildirgan. Ularning kasbiy mahorati aholining 42,1% tomonidan 5 ballik tizimda eng yuqori ball bilan baholangan. Aholining fikricha, tibbiy brigada faoliyatini yaxshilash uchun hamshiralarning kasbiy mahoratini oshirish va ular uchun qulay ish sharoitlarini yaratish zarurdir. Hamshiralik faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ish yuklamasining ko‘pligi (54,2%) va zamonaviy tibbiy jihozlarning yetishmasligi (24,1%) qayd etildi. Shu bilan bir qatorda muammolarni bartaraf etish borasida aholi fikri o‘rganilganda 42,2% aholi hamshiralar malakasini oshirishni, 37,3% esa ish sharoitlari va motivlarini yaxshilashni taklif qilishgan. Bundan tashqari, 9,6% aholining fikriga ko‘ra, hamshiralar faoliyatiga o‘zgartirishlar kiritish zarur deya fikr bildirishgan.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hamshiralar malakasini oshirish dasturlarini joriy qilish, motivatsiya mexanizmlarini takomillashtirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash ish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, hamshiralarning ish yuklamasi va hisobot ishlarining ko‘pligi ularning samaradorligiga salbiy ta’sir qiluvchi asosiy muammolar ekanligi qayd etildi. Tibbiy brigada faoliyatini takomillashtirish bemorlarning xizmatdan qoniqish darajasini oshirishga hamda aholining umumiy salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.